

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
XORAZM VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI**

**Kashtachilik sa`nati tarixini o`rgatish
(metodik tavsiya)**



Urganch – 2024 yil

Ushbu metodik tavsiya kashtachilik san'ati tarixi, kashta tikish asboblari va moslamalari, kashta tikishda ranglar tanlash, kashtachilikda bezak buyumlari turlari, kashtachilik texnologiyasi bo'limini o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari keltirilgan. Ushbu metodik tavsiya maktab texnologiya fani o'qituvchilari dars mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda hamda malaka oshirish kurslarida foydalanish uchun tavsiya qilinadi

Tuzuvchi : Xorazm viloyati PMM "Amaliy fanlar va maktabdan
tashqari ta'lim metodikasi" o'qituvchisi S.Kazakova

Taqrizchi : Xorazm viloyati PMM "Amaliy fanlar va maktabdan
tashqari ta'lim metodikasi" mudiri Sh.Kenjaye
Urganch sh. 1-son maktabning texnologiya fani o'qituvchisi
R.Yaqubova

Ushbu metodik tavsiya "Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi" kafedrasining 2024 yil 20 dekabr 11-sonli yig'lishida muhokama etildi va mahorat markazi ilmiy –metodik kengashiga ko'rib chiqish uchun tavsiya qilindi. Xorazm viloyati PMM ning ilmiy-metodik kengashida tasdiqlandi va 2024 yil ____ dekabrda ____ sonli bayonnomasi bilan chop qilishga ruxsat berildi

Kirish.

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlar qatoriga qo`shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining o`rni beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyatini boyitishda xalq hunarmandchiligi turlaridan kashtachilikning muhim o`rni bor. Kashtachilik san'ati avlodlarimizning hayotiy tajribalaridan foydalanish, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy meroslarini o`rganish, tarixiy, etnik, milliy, mahalliy, hududiy jihatlarini amalda qo`llab, kashtachilik sirlarini yoshlarga singdirish, noyob turlarini, yuksak badiiy nushalarini tayyorlash, ularni xalq qadriyatlari, merosimizga bo`lgan hurmatlarini oshirishga qaratilgandir.

Kashtachilik san'ati, uning tarixi, ishlatiladigan asboblari, iplar, gazlamalar, ranglar, naqshlar tanlash, naqshni ko`chirish usullari, bezak buyum turlari va ularni tikish texnologiyasi, milliy naqsh tili alifbosi, naqsh namunalarini chizish hamda kashta gul namunalari yoritilgan.

Keyingi vaqtlarda kashtachilik san'ati o`zining qiymatiga, ranglarda nazokatni chuqur his qilishga, milliy naqshlarning ayrim elementlari va kompozitsion tikilishiga talab kuchayib bormoqda. Chunki badiiy bezakka bo`lgan qiziqish tobora oshib bormoqda.

Kashtachilik hunarini qunt va tirishqoqlik bilan o`rganishingiz kerak. Tikilgan naqsh bezaklari orqali siz borliqni, go`zallikni, yaxshilikni, kishilarga tikkan kashtangiz orqali estetik zavq bag`ishlaysiz. Bular orqali siz kelajakda meros bo`lib qolgan milliy san'atimizni, an'analalarimizni davom ettirib, nodir asarlar yaratib, kashtachilik san'atining xazinasiga, madaniyatimizga katta hissa qo`shgan bo`lasiz.

2. Kashtachilik san'ati tarixi

O'zbek milliy kashtado'zlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi.

Kashtachiligimiz san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek chevar ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpich, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san'at muzeylarida ko'p namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlimi, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlari bilan birgalikda rivoj topgan. XIV - XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Ganzalem de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan.

"Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga e'tibor bersak, unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiliklarining usullarini uchratamiz.

Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik shakl hamda gul naqshlari ko'p qo'llaniladi. Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari-bo'lajak kelinchak seplari bo'lmish har xil kashtachilik buyumlarini ya'ni dastro'mol, choyxalta, parda, belbog', sumka, nimcha, joynomoz, gulko'rpa, kirpich, zardevor, choyshab, so'zana, kiyim bezaklari va bosh kiyimlarini, sovg'alarni

o`zlari tayyorlashgan. To`yda kuyovning qarindosh-urug`lariga kelin o`zi tikkan buyumlarini sovg`a qilgan. To`ydan oldin sep yoyib ko`rgazma qilinadi, bu kelinning chevarligini, mehnatsevarligini namoyish etishi va kashta qanchalik nozik, chiroyli bo`lsa yuqori baholanar edi. Qizlar juda yoshligidan boshlab kashta tikishga o`rgatilib, ular uch, to`rt yildan keyin mustaqil kashta tikishni boshlaganlar. O`rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo`lib, oilada kashta tikish bilan ayollar shug`ullanishgan. O`tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, hisoriga, baxmal matolarga tikilgan, keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo`ldi. Ish jarayonida ular o`z mahoratlarini oshirishgan, bir-biridan va kattalardan avlodlar tajribasini o`rganishgan. Xalq badiiy hunarmandchilik mahsulotlari faqat bizning mamlakatimizda emas, balki chet mamlakatlarda ham cheksiz talab qilinadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo`lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o`sha yerda kashf etishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach ipak, zar yoki jun ip qo`shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Kashtachilik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topgan.

XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo`lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmoniy turklar ham ushbu san'atga o`zlarining munosib ulushlarini qo`shganlar. Qrim va Kavkazning qayeridagi Vizantiya madaniyati uzoq vaqt kuchli ta'sir o`tkazgan bo`lsa, o`sha yerda kashtachilik rivojlanavergan. Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib kashtachilik san'atini o`rgangan. Rus kashtasi gullarining xarakteriga va tikilish usullariga ko`ra juda turli-tumandir. Popok (yo`rma) chokli kashta tikish Olonets, Vologda oblastlari va Arxangelsk oblastining g`arbiy qismida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda Rossiyada ellikdan ortiq baxyasimon kashtado`zlik korxonalari bor. Ivanovo, Ryazan, Kalinin, Smolensk va boshqa oblastlarda kashtado`zlik markazlari bo`lib, u yerdagi korxonalarda turli kiyimlar va uy ro`zg`orni bezaydigan turli buyumlar ishlab chiqariladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi.

Kashtado`zlikning yirik namoyandalaridan Andijondagi "Qizil bayroq" arteli rassom kashtado`zi X.Nazarov, Samarqanddagi "Xotin-qizlar mehnati" arteli kashtado`zi Usmon Shokirov, toshkentlik kashtado`z va chizmakash Xayri Sobirovalar kashta buyumlariga yangi turli xil naqsh kompozitsiya va tikish usullarini yaratdilar. X.Sobirova onasi Zaxira Mirxoliqovadan qo`lda, mashinada tikish sirlarini va chizmachilikni o`rgandi. X. Sobirova 15 yoshidan boshlab onasining kashtado`zlik hunarini davom ettirib, "Sharq guli" va "Ilg`or" nomli Stalin artelida 16 yil ishlab ko`p shogirdlar yetishtirishda o`z hissasini qo`shdi. Yetishib chiqqan kashtachilar o`zining san'ati va tabiatiga ko`ra go`zallik xaqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

3. Kashta tikish asboblari va moslamalari

Qo`lda kashta tikish uchun o`ziga xos asboblari bo`ladi. Kashtachilikda ignalar, angishvona, qaychi, santimetr lenta, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar hamda chambarak ishlatiladi.

Kashtachilikda oq, kul rang, och sariq, och malla rangli surp, bo`z, karbos, shoyi, baxmal, chit yoki satin kabi matolar ishlatiladi. Bunday matolarda naqshlar chizilganda yaxshi ko`rinadi, rangli iplarning aksariyati unga mos tushadi.

Gul, rasm, naqshlar chizish uchun chizg`ichlar, yumshoq va qattiq qalamlar, daftar, albom, o`chirg`ich, millimetrlangan qog`oz, nusxa ko`chiradigan qog`oz va shaffof qog`ozlar kerak bo`ladi.

Chambarak gazlamani tarang tortib turish uchun ishlatiladi. 20-40 sm li ikkita gardishdan iborat bo`lib, bir- birini ichiga tushib turadi. Agar kichik gardish katta gardish ichiga qiyin tushadigan bo`lsa, katta gardishning ichki tomonini jilvir bilan tozalash kerak. U juda kichik bo`lib, katta gardishdan tushib ketadigan bo`lsa atrofiga yupqa gazlama o`rab qo`yish mumkin.

Kashta tikiladigan gazlamani chambarakka tortishda uning kichik gardishi qo'yilib, iplarini qiyshaytirmasdan to'g'rilanadi. Katta gardishni uning ustiga qo'yib, bosib gazlama tarang tortib qo'yiladi. Chambarak tortilayotgan yupqa gazlama yirtilmasligi, shuningdek, kashta tikiladigan gazlama ish paytida kir bo'lmasligi uchun, uning ustiga o'rtasi chambarakning diametridan kichikroq doira qilib qo'yilgan boshqa gazlama qo'yiladi.

Chambaraklar stolga mahkamlab qo'yish uchun vintli bo'lishi ham mumkin. Kashtalarning ko'p xillarida umuman chambarak ishlatilmaydi. Kashta tikish uchun cho'ziqroq ko'zli kalta (1 va 2 tartibli) ignalar tanlanadi. Ignaning ko'zi katta bo'lsa, bir necha qavat ipni o'tkazish oson bo'ladi. Bunday ignalar sanama va oddiy choklarni tikishda, hamda ipni sanash va ajratib olish uchun qulay. Jun ipni ignaga o'tkazish qiyin. Bu ipni o'tkazish uchun ignalar komplektidagi ip o'tkazgichdan foydalanish mumkin. Uning bir qatim ipak yoki ingichka g'altak ip bilan o'tkazsa ham bo'ladi.

Ipakni ikki qavat qilib, hosil bo'lgan petlya ichiga jun ipi uchun kiritiladi, ipakning ikkala uchini igna ko'zidan o'tkazib, jun ip bilan birga tortib olinadi. Zich va yupqa (markizet, shoyi, batis, shifon) gazlamaga kashta tikishda, ko'zi kichik, ingichka igna kerak bo'ladi. Yo'g'on igna sanchilgan joylarda teshik qoladi. Katta ko'zda esa ingichka ipni yaxshi tutib bo'lmaydi. Buyumlarni biriktirib ko'klash uchun 1 va 3 tartibli ignalar ishlatish qulayroq.

Kashtani chambaraksiz tikishda, bir necha qavat gazlamaga igna sanchishda, buyumlar chetini buklab tikishda ignani gazlamadan o'tkazish uchun angishvona kerak bo'ladi. Ang- forscha angusht, ya'ni barmoq, vona, bona saqlovchi degan ma'noni bildiradi. Qo'lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa qo'yiladigan metall g'ilof. Angishvonaning usti va yoni ignani qadashda toyib ketmasligi uchun chuqurchalar qilib tayyorlanadi. Angishvona o'ng qo'lning o'rta barmog'iga taqiladi, uni barmoqning yo'g'onligiga qarab tanlanadi, lekin u barmoqni siqib yoki undan tushib qoladigan bo'lmasligi kerak. Naqshlar uchun o'tkir uchi 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Ishlash uchun uch xil uchi

ingichka kichkina qaychi gazlamadagi ipni qirqish va tortib olib tashlash uchun; uchi qayrilgan o`rtacha kattalikdagi qaychi-kashta tikayotganda ip uchini qirqish uchun; katta qaychi gazlama kalava iplarini qirqish uchun. Qaychilar yaxshi charxlangan, tig`larining uchi to`la yopiladigan bo`lishi kerak.

Santimetrli lenta tikish ishlarida buyum o`lchamlarini aniqlash, gazlamaga bezakni rejalash, tikish ishlarini bajarishda foydalaniladi. Kashtachilikda yog`och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli- ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Kashta tikishda ilmoqli bigiz ayrim materiallarga masalan charm, kartonga ninani qiynalmay o`tkazish uchun, oldin ilmoqsiz bigiz bilan teshib olinadi, so`ngra kashta tikiladi. Millimetrli qog`oz-naqshlar, ayniqsa geometrik, sanama naqshlar tuzish kerak bo`ladi.

Kashta gulni gazlamaga ko`chirishga tayyorlashda shaffof qog`oz ishlatiladi. Naqsh avval shaffof qog`ozga ko`chiriladi, keyin qog`ozdan gazlamaga ko`chiriladi. Kashta gulni gazlamaga ko`chirish uchun nusxa ko`chiradigan (kopirovka) qog`ozi ishlatiladi. Kashta tikish uchun kashta gul, rasm bo`lishi zarur. Naqsh- arabcha tasvir gul degan ma'noni anglatadi. Kashtado`zlik san'atida har bir millatning o`ziga xos eng ko`p qo`llaydigan naqshlari bo`ladi. O`zbek kashtalarida o`simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko`p bo`lsa, rus kashtachiligida geometrik, o`simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko`p tasvirlanadi, qozoq va qirg`iz kashtachiligida esa ko`proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Rang-tasvir vositalar yordamida ishlangan, nur va soyalar hajmni keltirib chiqaradigan, shu bilan birga o`ylamay-netmay tabiatdan aynan ko`chirishga intilmagan rasmchini naturadan yaqinroq bo`lishi mumkin. Kashta gulini yaratishda naturaga qarab rasmni chizib oladi, keyin uni naqshga va turli naqshdor kompozitsiyaga aylantiriladi. Naqsh bilan amaliy san'at buyumlari bezatiladi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo`lib, o`sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan tikilishiga butunlay bog`liq bo`ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) xarakterli belgilari tanlanadi. O`simlik, qush motivlarini aniq ko`rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlarigina bo`rttirib kontur qilib chiziladi.

Biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy yechimini o`ylab ko`rish, bezakning undagi ayrim bo`laklarining buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya xarakteri ko`proq ritmga-naqshdagi alohida elementlarga bog`liq bo`lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo`lishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi.

Kompozitsiya (mujassamot) - lotincha "Kompositio" so`zidan olingan bo`lib, to`qish, tuzish, bir-biriga solishtirish, naqshni g`oyasi, xarakteri va vazifasiga, muvofiq uyg`un hamda mutanosib joylashtirish degan ma'noni anglatadi. Ritm-naqsh kompozitsiyasining ma'lum bir qismi ma'lum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi bo`lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go`zal ko`rinishini ta'minlaydi. Simmetriya-grekcha so`zdan olingan bo`lib, o`lchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi.

Bezakning simmetrik tuzilishi. Assimetriya-kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalarining muvozanatini buzilishidir.

Stilizatsiya-tabiatdagi o`simlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va uzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir. Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va hokazolar) dan shuningdek, to`lqinsimon, siniq chiziqlar, spirallardan, o`simliklar (barglar, shoxlar, daraxtlar) dan, jonivorlar dunyosi (hashoratlar, qushlar, baliqlar, hayvonlar) tasviridan foydalanish mumkin. Naqshda geometrik shakllar bilan tabiatdagi o`simliklar qo`shilgan bo`ladi.

Kashta bezaklariga simmetrik, ya'ni asosiy chiziqlar, shakllar, ranglarning gorizontal yoki vertikal simmetriya o`qiga nisbatan qonuniy joylanishi xarakterlidir. Gul bitta, shuningdek, ikkita yoki bir necha simmetriya o`qiga nisbatan tuzilishi mumkin.

Kashtada gul ko`pincha yopiq yuzada, ya'ni qandaydir geometrik shakl bilan chegaralangan yuzada tuziladi. Bu kvadrat yoki to`g`ri to`rtburchak shaklidagi dasturxon, so`zana, palak, zardevor, kirpich, choyshab, belbog`, yostiq ustiga

yopiladigan jildi, dastro`mol va hokazolar bo`lishi mumkin. Buyum shakliga va kashtado`zning mo`ljaliga qarab kashta gulning shakli va joy o`zgarishi, masalan, dasturxon, dastro`mollarning burchaklariga yoki o`rtasiga kashta tikilishi mumkin. Burchakdagi kashta gullarining tuzilishi har xil bo`ladi. Bezakda bargli va gulli novdalar burchakdan chap va o`ng tomonga yo`nalgan. Hamma bezaklarda aytilgan o`simliklarga o`xshashlik saqlanib, gul va barglari yangi shaklga kiradi.

Ularda tabiatda uchraydigan kamchiliklar: burishgan yoki singan barglar, buralgan gulbarglar, singan yoki zichlashgan shoxchalar yo`q. Bunday novdani ko`rish uchun barglarni surib tekislash, ulardan bir qismini uzib tashlash kerak. Rassom ham kashta bezagini yaratishda xuddi shunday qiladi. Gul va barglarning aniq shakllari rassom o`ylaganicha itoat etib, yangicha yo`l yoki yuzani to`ldiradi.

Bunday bezaklarda gullar, barglar va mevalar bir-biriga halaqit bermaydi, bir-birini ustiga o`tmaydi. Buyumni bezak elementlari shunday joylashtiriladiki, ular orasidagi bo`sh joylari bir tekisda taqsimlanib, bezakning bir qismi bo`lib qoladi.

Kashta uchun xalq orasida tarqalgan bezaklar va rassomlar yaratgan rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi. Rasmlarning ba'zi qismlarini ixtiyoriy ravishda kompozitsiyalash ham mumkin, lekin tabiatni kuzatib, bezaklarni buyum yuzasiga joylashtirishni ham o`ylab topish yanada qiziqarliroqdir.

4. Kashta tikishda ranglar tanlash

Kashta tikish rang bilan chambarchas bog`liq. Iplarni tanlashda ranglarning yo`g`onlashuvini, ular bir-biriga qanday ta'sir etishini bilish zarur. O`zaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi. Agar uch qirrali shisha prizmadan nur tarami o`tkazilsa, u tarkibiy qismlarga bo`linib ko`rinadi, rangli yo`l-spektr hosil bo`ladi.

Tabiatda ranglarning bunday qo`shilishini ko`pincha kamalakda, quyosh nuri shudring zarralaridan o`tishida ko`rish mumkin. Ko`zga ko`rinadigan spektr uzluksiz o`zgara boradigan qizil, to`q sariq, sariq, yashil, zangori, ko`k,

binafsha ranglar qatoridan iborat. Bu ranglar bir-biridan oraliq tuslar gammasi bilan ajralgan bo`ladi. Agar spektr ranglarini o`sha tartibda doiraga joylashtirilsa, ko`k- binafsha va qizil ranglar orasida to`q qizil rang bo`ladi.

Ranglar doirasini diametri bo`yicha bir tomonda qizil to`q sariq va sarg`ish-yashil, ikkinchi tomonida zangori-yashil, ko`k, ko`kish-binafsha ranglar qoladigan qilib ikkiga bo`lish mumkin. Doiraning qizg`ish-sariq bo`lagidagi ranglari iliq va ularga qarama-qarshi hamma ranglar turlarini sovuq ranglar deyiladi. Ular ko`kimtir ufq, suv, muz ranglarni eslatadi. Har qanday rang o`zining tusi, och va to`qligi bilan xarakterlanadi. Rang tusi-qizil, ko`k, sariq va hokazo- rangdorlik. Rang tusiga qarab bir rangni ikkinchisidan (yashilni ko`kdan, ko`kni zangoridan) farqlanadi. Ochiqlik-oq rangga yaqinlik darajasi. Sirti oq bo`lgan narsalar atrofimizdagi hamma narsalar ichida eng ko`p nur qaytaradigan bo`ladi. Shuning uchun oqqa yaqin (och pushti, och-sariq va boshqa) ranglar eng ochiq (eng yorqin) ranglar bo`ladi. Rangning to`qligini quyuqlik darajasiga, eng ko`p rangdorligiga qarab belgilanadi. Masalan, ko`k rangni bundan ham ortiq ko`kartirib bo`lmasa, u to`q hisoblanadi.

Hamma ranglar xromatik va axromatik (xromos, grekchadan rang, a- inkor) ranglarga bo`linadi. Spektrdagi hamma ranglar, shu ranglarning behisob hamma turlari qatori xromatik ranglarga kiradi. Ular tonal deyiladi. Axromatik ranglarga oq, kulrang, qora ranglar kiradi. Bular tusi, turi yo`q ranglar. Axromatik ranglar to`q bo`lmaydi. Ularning rang tusi ham bo`lmay, bir-biridan yorqinligi bilangina farq qiladi. Eng yorqin rang-bu oq rang. Qoraning yorqinligi bo`lmaydi. Spektr doirasining qarama-qarshi tomonida joylashgan ranglar qo`shimcha ranglar deyiladi. Agar qizil rangning o`rtasidan diametr o`tkazilsa, u ranglar doirasidagi qizil rangning taxminan to`g`risidagi zangori-yashil, to`q-sariqqa zangori, sariqqa-ko`k, yashilroq va hokazolar qo`shimcha rang bo`ladi. Agar qo`shimcha ranglar teng miqdorda aralashtirilsa, ular bir-birining rangini o`chirib ochroq, kulrang hosil bo`ladi. Qo`shimcha ranglar yonma-yon qo`yilsa, ular bir-birining rangini to`qnashtiradi. Qo`shimcha sifatida biri asos bo`lib, ikkinchisi qo`shimcha

sifatida (bezak uchun) xizmat qilishi lozim. Har qanday ranglar yonma-yon turganda bir-biriga ta'sir ko'rsatib, turli taassurot qoldirishi mumkin. Har qanday rang to'qroq ranglar orasida ochroq ko'rinadi, och ranglar orasida esa- to'qroq ko'rinadi. Oq bilan qora, qora bilan kulrang oq o'zaro yaxshi moslanadi. Bu ranglar istalgan hamma ranglar bilan uyg'unlashaveradi. To'q ranglar qora yoki oq ranglar bilan, ochroq ranglar esa- turli tusdagi kulranglar bilan yaxshi xillanadi.

Rang tanlashda uning yana bir xususiyatini esda tutish kerak. Rang buyumning shaklini yoki katta kichikligini o'zgartirib ko'rsatishi mumkin. Agar qizil va ko'k dog'lar bilan qoplangan yuzaga qaralsa, bunda qizil dog'lar ko'k dog'larga nisbatan yaqinroq bo'lib, aldab ko'rinishi mumkin. Och va iliq ranglar to'q va sovuq ranglarga qaraganda yaqinroq ko'rinadi. Shuning uchun ranglar buyumlarni kattalashgandek, sovuq ranglar esa kichiklashgandek ko'rsatadi.

Ranglarning bu xususiyatidan kiyimning ayrim bo'laklarini bo'rttiribroq, turtib turgan joylarini silliqroq qilib ko'rsatish uchun foydalansa bo'ladi. Uzoqdan ko'rinadigan buyumlar kashtasini to'q rangdagi iplar bilan tikiladi. Kashta tikish uchun iplarni tanlash, ular rangini xillash buyumning nimaga mo'ljallanganiga, gulning kattaligi va qanday joylanishiga bog'liq bo'ladi.

Odatda, kashta guliga asosiy o'rin berilib, gazlama rangiga qo'shimcha o'rin beriladi. Shuning uchun gazlama rangi naqsh rangidan ochiq bo'lib ajralib turmasligi kerak. Kashta gulining rangini tanlashni bajarish sanama chok, tekis chok va hokazolarga ham bog'liq bo'ladi.

Gazlama va ip tanlash. Kashta tikish uchun gazlama bilan, ip buyumning nimaga mo'ljallanganiga, bezakning xarakteriga va tikish usuliga muvofiq tanlanadi. Kashta tikiladigan materialga muvofiq rangdagi ip tanlash kashtado'zlikda katta ahamiyatga ega. Bu kashtado'zdan katta mahorat va did talab qiladi. Kashtada foydalaniladigan iplar rangining o'zaro muvofiqligi ham kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi. O'tmishda turli-tuman rangdagi matolarning kamligi sababli ko'pgina bezak kashtalari bugun mato sathini kashta bilan qoplab tikilgan. Hozirda so'zana, choyshab, zardevor kabi bezak buyumlari

baxmal, shoyi, satin, shuningdek turli-tuman iplar ham ko`p. Bu kashtani jozibador chiqarishda rangdan keng foydalanish imkonini beradi. Kashtado`z kashta tikmoqchi bo`lgan kiyim shakliga, matosi rangiga qarab kashta nusxasini tanlashi kerak. Kashta iplari paxta tolasidan to`rt qavatli qilib, turli ranglarda tayyorlanadi, xira bo`ladi va 50 metrli kalava tarzida savdoga chiqariladi.

Mulina-yuqori sifatli paxta tolasidan tayyorlanadi. 12 qatli, maxsus ishlov berib sifati oshirilgan, chidamli bo`ladi. O`n yoki yigirma metrlik kalava tarzida chiqariladi. Ipak iplar-tabiiy va kimyoviy tolalardan tayyorlanadi. Pishitib-yigirilgan turli razmerdagi oq bo`yalgan bo`lib, kalava qilingan (40g li), g`altak va qog`oz patronlarga o`ralgan (50, 100, 200m uzunlikda) bo`ladi. 13-18-nomerli ipak iplar jun, zig`ir poyasidan, sun`iy tolalardan tayyorlangan iplar, mayin sim, zar ip, charmdan ensiz qilib tayyorlangan tasmalar bilan tikiladi.

**Naqshni gazlamaga ko`chirish.** Naqsh nusxasini har xil gazlamalarda har xil yo`llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko`chiradigan qog`ozlar axta yorug`lik yordamida, naqsh chizilgan qog`ozni gazlama ustidan ko`klab chiqiladi keyin bu qog`ozlar yirtib olinadi. Hamma hollarda ham oldin bezakni originaldan shaffof yoki millimetrli qog`ozga uchi yaxshi ochilgan qalamda ko`chirib olinadi. Shundan keyin uni gazlamaga o`tkaziladi. Bezakni (naqsh) nusxa ko`chiradigan (kopirovka) yordamida ko`chirish.

Gazlamani oldin dazmollab, tekis yuza (stol, taxta) ustiga yozib qo`yiladi, bunda gazlamaning asos va arqoq iplari qiyshayib qolmasligiga qarash kerak. Naqsh (tekis chok, suv chok, ustki chok va hokazo bilan tikiladigan) chizilgan shaffof qog`ozni gazlama ustiga qo`yib, to`g`nog`ich bilan qadab qo`yiladi. Nusxa ko`chiradigan qog`ozini to`q tomonini gazlamaga qaratib shaffof qog`oz tagiga qo`yiladi, uchi yaxshi ochilgan qalam bilan bezak ustidan chizib chiqiladi. Turli rangdagi nusxa ko`chiradigan qog`ozlar bo`lgani ma`qul, shunda och rangdagi gazlamaga to`q rangli (qora, ko`k, yashil), to`q rangli gazlamaga och rangli (oq, sariq) nusxa ko`chiradigan qog`oz ishlatiladi. Bezakni ko`chirib bo`lingach nusxa kopirovka) qog`ozi olinib, bir tomondagi to`g`nog`ichlar chiqariladi va bezagi tekshiriladi. Shundan keyingina shaffof (kal'ka) qog`oz olib tashlanadi. Naqshni

nusxa ko`chiradigan qog`oz bilan ko`chirishda bezakning chiziqlari qalin bo`lmasligini yodda tutish kerak, aks holda kashta tikayotganda gazlama va ip kir bo`lib qoladi. Shuning uchun ishlatiladigan kopirovka qog`ozidan foydalanish yaxshiroq, yangisini esa ishlatishdan oldin quruq paxta yoki latta bilan artish kerak.

**Bezakni yorugqa tutib ko`cherish.** Yupqa shaffof gazlamalarga kashta gulni gazlama tagidan yoritish yo`li bilan ko`chirish mumkin. Tagiga lampa qo`yilgan oyna ustiga yaxshi ko`rinadigan kashta gulni qo`yib, uning ustiga yaxshi tortilgan chambarakga (kergiga) o`rnatilgan gazlama qo`yiladi. Gazlama tagida ko`rinib turgan kashta gulni uchi yaxshi ochilgan qalam bilan gazlamaga chizib olinadi.

Bezakni shaffof qog`oz yordamida ko`cherish. Movut baxmal va yaltiroq gazlamalar ustiga kashta gulni shaffof qog`oz ustidan ko`klash yo`li bilan ko`chiriladi. Buning uchun bezakni shaffof qog`ozga ko`chirib olib, uni gazlama ustiga qo`yiladigan, butun chizig`i bo`ylab mayda zich qaviqlar bilan ninani oldinga yo`naltirib tikib chiqiladi. Keyin qog`oz yirtib tashlanadi. Bezakni axta (andaza, ulgi) yordamida ko`chirish. Axta naqsh yoki biror rasmni shaffof (kal'ka) qog`ozga chizib, chiziq yo`llarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlangan andoza. Axtani tayyorlash uchun shaffof (xitoy) qog`ozga naqsh kompozitsiyaga moslab simmetriya o`qi bo`yicha qog`ozni ikkiga, to`rtga va hokazo buklanadi. Buklamaning bir qismiga naqsh chiziladi. Naqshli shaffof qog`ozni yumshoq gazlama yoki bir necha qavat gazeta qog`ozi ustiga qo`yib, naqsh chiziqlari ustidan 2-3 mm oraliqda igna bilan teshib chiqiladi. Naqsh nusxasi igna bilan teshib bo`lingandan keyin, shaffof qog`oz yopib yuboriladi, natijada axta hosil bo`ladi. Tayyor bo`lgan axtani ish yuzasiga qo`yib, ustidan xoka urib va bosib yurgazib chiqiladi. Geometrik shakldagi bezakni teshma ko`chirishda uning kataklari vertikal va gorizontal chiziqlar kesishgan nuqtalarda teshib hosil qilinadi.

Kashta gul chizilgan shaffof qog`ozni kerosinlangan latta bilan artib, toza tomonini gazlamaga qaratib qo`yiladi-da, bir necha joyidan to`g`naladi. Movut

yoki paxmog`ning (ochroq bo`lgani yaxshi) yoki paxtaning ustiga doka o`rab tampon qilinadi. To`q rangdagi gazlamaga bezakni ko`chirish uchun xokani bo`r yoki tish poroshogi aralashgan kerosinda ho`llab olinadi.

Shu maqsadda hech narsa bilan aralashmagan tish pastasini ishlatish ham mumkin. Teshib ko`chirishda kashta gulning gazlamasidagi tasviri aniqroq, buzilmay chiqadi, bu ayniqsa kashta gulning bitta bo`lagini bir necha marta tikish kerak bo`lganda, mehnatni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Andozalarni bir necha marta ishlatish mumkin. Bu axtalar (andoza) alohida paketda saqlangani tuzik. Naqsh chizilgan gazlama parchasiga tikiladigan, uni dumaloq chambarakka tortish qiyin bo`lsa, bu gazlama parchasining chetlariga ish tugagandan keyin so`kib tashlanadigan, hohlagan boshqa gazlama parchasini ulab qo`yish mumkin. Matoda gullarning o`rni-o`rnini topib qo`yish, xususan buyumlardagi gullarni joylashtirib chizish g`oyatda murakkab va mas'uliyat talab ishdir. Kashtado`zlik san'atida nushasi va chizmakash hunari ustalarining o`rni beqiyos. Chevar har qancha mohir bo`lmasin, naqshlarni nushasi, chizmakashlar asosan atroflicha o`ylab ko`rib, o`z kasb-hunarlarining an'analari va spetsifik xususiyatlari asosida chizib beradilar.

5. Kashtachilikda bezak buyumlari turlari

O`rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo`lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo`lgan. Shuning uchun har bir oila o`zi uchun buyumlarni o`zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko`p, masalan, so`zana, kirpich, choyshab, choy xalta, zardevor, palak, gulko`rpa, dorpech, parda, belbog`, do`ppi, ko`ylak, dastro`mol, hamyon, joynomoz, sumka, nimcha va boshqalar badiiy did bilan bezatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

Palak-devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to`lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo`zga kashta tikib tayyorlangan. U so`zanadan gullarning yirikligi, zaminining ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o`rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib

o`simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko`pincha bodom, qalampir elementlari qo`llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o`n ikki oylik palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palaka tikilgani bizga ma`lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado`zlar ba`zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o`z mahoratlarini namayon etadilar. Agar oyni ichi sidirg`a rangda ifodalangan bo`lsa, uni oypalak, gar naqshdan bo`lsa gulpalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo`l mehnati ko`p bo`lganligi uchun so`zana deyila boshladi. Lekin hozir palakni qo`lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kirpech- kirpo`sh, tokchaga taxlab qo`yiladigan kiyim-kechak ustidan yoki devorni vertikal bo`sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo`lda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qo`lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Kirpech o`lchami 250X65sm.

So`zana - forscha so`zani deb ham yuritiladi, igna bilan tikilgan degan ma`noni beradi. So`zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo`lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo`yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga tikib tayyorlanadi. U o`ziga xos badiiy ko`rinishiga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalaniladilar. Shuning uchun palakdan farq qiladi.

So`zana har bir xonadonda bo`lgan, chunki qizlar turmushga chiqishlaridan oldin o`zlari uchun so`zana tayyorlaganlar. U kelinlarning sepi hisoblangan. Kambag`al oilada so`zanani malla, oq bo`zdan, badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. So`zana uchun kompozitsion hisoblangan o`simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So`zana o`rtasida ko`pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islmiy naqshlar bilan bezatiladi. So`zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo`lib, faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg`ona, Shaxrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi so`zana turlari amaliy sa`nat muzeylarida namunalari bor.

Choyshab-forscha-tojikcha ro'yjo-tun chodiri degan ma'noni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun, to'shak ustidan to'shaladi. To'shak ustidan yoziladigan choyshab ham kashtali oq surup, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda choyshabdan so'zana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda.. (4-rasm)

Oq ipak bilan tikilgan dungalaklari esa o'n ikki oyni, to'rtta burchakni birlashtirgan joyi bir yil ma'nosini bildiradi. Uning garmdori gullari esa nazardan, nafasdan, ko'zdan saqlar ekan. Uni qushning qanoti deb yoki "bodom guli" nomini olgan. Do'ppini ota- buvalarimiz avaylab e'zozlashgan.

Do'ppi bosh kiyimi, boshni salqindan, quyosh nuridan himoya qiladi. O'zbekiston sharoitida ko'p kiyiladi. U 3 qism: Tapa, kizak va jiyakdan iborat. Shu qismlar qanday gazlamadan qay tarzda tayyorlanishi, bezatilishi, tikilish uslubi va usullariga ko'ra farqlanadi, turli joylarda shu yerga xos usul va uslubda tayyorlanganidan do'ppilar ko'pincha shu yerning nomi bilan mashhur bo'lgan. O'g'il bolalar va erkaklar kiyadigan Toshkent, Chust, Marg'ilon do'ppilari sipoligi tufayli keng tarqalgan.

Toshkent do'ppisi sidirg'a rangli (yashil, qora, ko'k, to'q binafsha va jigar rang) taqir baxmaldan tayyorlanadi. Toshkent do'ppisining ikki xili: tepasi dumaloq va uchburchaksimon taxlanadigan xili mavjud. Bu do'ppilarning tepa va kizaklarini bichishda odatda andozadan foydalaniladi. Karton yoki qalinroq qog'ozga pargor yordamida doira chiziladi. Agar 54-razmerli do'ppi tikiladigan bo'lsa, doiraning diametri 20:5sm bo'lishi, doiraning markazidan chetgacha chetgacha 10 sm 3 mm qilib pargorni mustahkamlab olish kerak. Do'ppining har bir razmeri ortgan sari pargor 2 mm kengaytirila boradi. Keyin doira to'g'ri chiziq bilan teng 4 ga bo'linadi, bu chiziqlar doira chetida to'g'ri chiziq bilan bir-biriga tutashtirilib, kvadrat hosil qilinadi. Kvadratdan tashqari qolgan yoysimon qism 3 ga (yoki 4 ga) bo'linadi, eng chetda qolgan 2 qism yoki 3 qism qirqib tashlanadi.(1). Natijada kvadratsimon doira hosil bo'ladi. 54-razmerli do'ppi uchun tayyorlangan tepa andozasiga kesishgan chiziqlar markazdan chetgacha 10

sm 2,5 mm. To`rtga bo`linib, hosil bo`lgan karjning markaziy qismida uzunlik 8,5 sm bo`lishi kerak. Shu tepa andozasi avra va astar uchun mo`ljallangan uzunlik 8,5 sm bo`lishi kerak. Shu tepa andozasi avra va astar uchun mo`ljallangan matolar ustiga qo`yib bo`r yoki qalam bilan chiziladi. Astar avraga nisbatan 0,5 sm chaqilib qirqiladi Kizak eni 4 sm, uzunligi 56 sm li lenta tarzida bichiladi. Tikiladigan do`ppining boshga mos tarzda chuqurroq yoki yassiroq bo`lishi mumkinligini inobatga olib, kizak eni enliroq yoki ensizroq bo`lishiga ahamiyat berish kerak. (5-rasm)

Kashta tikish texnologiyasi. Qo`lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoq hamda o`rim iplarini sanab kashta tikish; ikkinchisi esa matoga naqsh-gul, tasvir konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq va o`rish iplari kesishtirib to`qilgan mato polotno, bo`z shaklida to`qilgan matoga tikiladi. Chunki bunday mato ishlarini sanab tikish qulay. Bunday kashta gullari geometrik shakllar, uzun-qisqa to`g`ri chiziqlardan iborat. O`zbekistonda sanama kashtaning iroqi turi tarqalgan. Erkin kashta esa har qanday matoga tikilaveradi, tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. Kashta tikishni boshlaganda naqshlar cheti (konturi) oldin tikib chiqilib, keyin ichi to`ldiriladi. Kashta tikayotganda popop mashinasidan murakkab kashtalar yo`llarini, gullarning o`zaklarini, gul atroflarini tikishda foydalaniladi. Oqlanganda bosma chokida igna bilan buoming yuza qismida ish bajariladi. Unda ipning uchi bog`lanib matoning tagidan ustiga igna sanchilib ip tortiladi, tugun kashtaning orqa tomonida qoladi. Ip tugagach yana shunday qilinadi. Bu ish qandaxayol, do`ro`ya, xamdo`zi, ilmoq choklarida ham amalga oshiriladi. Kashta tikilayotgan buyum tiza ustiga erkin tashlab qo`yilib tikiladi. Yirik buyumlar (so`zana, takiyapo`sh, gulko`rpa, choyshab, palak va boshqalar) kompozitsiya va naqsh chizilgach bir necha paxtaga ajratilib, kashtado`zlik qilingach, qaytib birlashtirib tikiladi. Bunda har bir bo`lak boshqa-boshqa chevar tomonidan tikilishi mumkin, ammo ip-ranglar, uslub chizmada belgilab olinadi va umumiy ranglar gammasi saqlangan bo`ladi.

O'zbek kashtachiligida iroqi, ilma, bo'rma, bosma, xamdo'zi, chamak, chinda xayod, baxya choklari keng tarqalgan. Turli joylardagi badiiy kashtalarda choklar turlicha tikiladi. Chunonchi, Toshkentda ko'proq bosma choki, Shaxrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Buxoro, Samarqand, Nurotada yo'rma choki bilan tikiladi.

Yo'rma choki-yo'rmaki, ilmoqli bigiz yoki igna bilan matoning o'ng tomonida xalqalar zanjiri, teskari tomonida esa to'g'ri chiziqchalar hosil qilib tikiladi. Bu chok mashinada tikiladi, mashina choki popop nomi bilan mashhur. Yo'rma choki bilan ko'pincha jiyaklar, bezak buyumlarining qoshiyalari, kashta ichini to'ldirish, shuningdek, yirik kashtalarning ayrim qismlari, gul va barglarni asosiy shoxga ulaydigan band va boshqalar qadimdan shunday usulda tikilgan. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zlari ko'p foydalanadilar. Yo'rma chok bir-birining ichidan chiqib keladigan uzluksiz qator xalqalar zanjiri bo'lib, bu chokni chambarakda va o'zi tomon yuritib qaviq tushiriladi. Kashtani chambaraksiz tikayotganda gazlama tortilib qolmasligi, chok yumaloq shaklda bo'lishini kuzatib borish kerak. Agar kashta ikki qavat ip bilan tikiladigan bo'lsa, ipni gazlamaga puxtalash qabig'i yo'rma chokining birinchi qobig'i bo'lishi mumkin. Puxtalangandan keyin ipni chapdan past tomondan o'ngga yo'naltiradi, ignani esa birinchi xalqa o'rtasidan ip gazlama o'ngiga chiqqan nuqtasida gazlamaga kiritiladi. (8-rasm). Igna birinchi xalqaga nisbatan gazlamaning to'rt - beshta ipiga teng oraliqda pastroqdan, ip petlyasi igna tagida qoladigan qilib chiqariladi. Kashta to'g'ri chiziq bo'ylab har bir qaviqqa gazlamadan bir xil miqdorda ip sanab tikiladi.

Yo'rma-do'zi uslubida tikishda ip doimo buyumning ostida turadi, bigizga-bigiz ilmog'iga chap qo'l bilan ildirib, turiladi, o'ng qo'l sanchib, uni tortib olib choklar zanjirini hosil qilishda xizmat qiladi. Yo'rma choki igna bilan bajarilganda, unda ish faqat buyum ostida bajariladi. Yo'rma chokni siniq chiziq tarzida tikish ham mumkin.


6. Kashtachilik texnologiyasi bo`limini o`qitishda qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari

”O`zing o`yla, o`zging top, o`zing yasa” usulidan foydalanib zardo`zi yelpig`ich yasash

O`zing o`yla	O`zing top	O`zing yasa
Qanday material tanlash kerak?	Qanday asboblari kerak?	Ishni nimadan boshlash kerak?

Gulsiz oddiy, qattiqroq materialdan foydalanib o`quvchi yoki o`quvchilar guruhi o`zi tomonidan loyihalangan reja asosida zardo`zi usulidan foydalanib yelpig`ich yasaydilar.

“Zinama-zina” metodi asosida marraga kim birinchi chiqish texnologiyasining sxematik tuzilishi asosida o`tilgan mavzularni mustahkamlash samarali hisoblanadi. Quyida uning sxematik tuzilishi keltirilgan bo`lib, mavzuga oid savollar ketma-ketligi asosida oddiydan murakkabga qarab tuziladi.



Halq hunarmandchiligi qo'llab kelayotgan naqshlar shartli tasvir bo'lishiga qaramasdan o'ziga hos qonuniyatga ega. Bu qonuniyatlar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadi. Tabiatning bu qonuni naqshda o'z ifodasini topadi. Har bir naqshning o'ziga xos nomlarini ma'nosi bo'lib, nomlanishi uning xarakterli o'rni bilan belgilanadi. Har bir naqsh ma'lum qonuniyatlar asosida tuziladi va chiziladi. Har qanday naqsh oddiy yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, oddiy elementlarning ma'lum g'oya, xarakter va vazifasiga muvofiq joylashtiriladi, o'zaro yo'g'onligi va munosibligi bilan hosil bo'ladi.

Bu qisqacha kompozitsiya (mujassamot) deyiladi. Masalan, 1-gulni (naqshni) yani "bargli zanjira" ni olaylik. U barg va bargchalardan iborat bo'lib, bu elementlarning ma'lum masofada ritmik takrorlanishida hosil bo'ladi. Shuning uchun "bargli zanjira" deb nomlangan. 2-gulni olsak, bu gulning nomi "yak raftor", yani bir yo'nalishli islima. Naqshda novda to'lqinsimon chiziq tariqasida davom etib ketaveradi. Yo'nalish bo'ylab shoxlab gajak holida egilib marg'ula bilan tugaydi. Shox o'sishi davomida kurtak va barg beriladi. Bunaqshning xarakterli o'rni shundaki, naqsh bir yo'nalishda o'sib boradi. Shuning uchun "yak raftor" deb yuritiladi. Naqshda novda, marg'ula, kurtak va barg ishtirok etadi.

Endi biz naqsh namunalarini qora qalamda chizishning qonun-qoidolari va bosqichlari bilan tanishib chiqamiz.

7.Xulosa va tavsiyalar

Ko‘rinib turibdiki, kashtachilik texnologiyasining asosi bo‘lgan, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kashtachilik san‘ati usullarining murakkabligi va ularni amalga oshirish vositalarining xilma-xilligi tufayli asrlar osha yashab, shu bilan birga boyib kelgan. Xalqimiz tarixida ro‘y bergan necha-necha bosqinlar davrida, ayniqsa, tariximizning bir asrini o‘z ichiga olgan qizil imperiya mustamlakachiligi yillarida unga qo‘yilgan taqiqlar bu san‘atni butunlay yo‘q qila olmadi. Aksincha, bu san‘atning xalqimiz xotirasi va ruhida yanada mustahkam o‘rnashishiga zamin yaratdi. Shuning uchun mustaqillikdan so‘ng xalqimiz ruhi va xotirasining uyg‘onishi bu san‘atning gullab-yashnashiga olib keladi.

Kashtachilik hunarini qunt va tirishqoqlik bilan o‘rganishingiz kerak. Tikilgan naqsh bezaklari orqali siz borliqni, go‘zallikni, yaxshilikni, kishilarga tikkan kashtangiz orqali estetik zavq bag‘ishlaysiz. Bular orqali siz kelajakda meros bo‘lib qolgan milliy san‘atimizni, an‘analarimizni davom ettirib, nodir asarlar yaratib, kashtachilik san‘atining xazinasiga, madaniyatimizga katta hissa qo‘shgan bo‘lasiz.

Globalashuv jarayonida o‘quvchilarning ma‘lumot oluvchi manbalari soni kundan kunga ko‘payib borayotgan bir davrda uzluksiz ta‘lim tizimimizga noan‘anaviy ta‘lim texnologiyalari kirib keldi. No‘ananaviy ta‘lim texnologiyalarini ta‘lim tizimiga joriy qilishdan asosiy maqsadlardan biri o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakillantirishdan iboratdir. Maktab ta‘limida interfaol ta‘lim texnologiyalari asosda tashkil qilingan darslar hech shubxasiz o‘quvchilarning ta‘lim olishga bo‘lgan ishtiyoqini va dunyoqarashini shakillantiradi. Ayniqsa amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarda shakillantiriladigan ko‘nikma va malakalar hosil qilishda ushbu ko‘nikmalarni kundalik hayot bilan bog‘lab olib borish o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakillantirish imkonini beradi.


Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Goncharova P. A. Buxoro zardo'zlik san'ati. T., 1986.
2. Jabborova M. Sh. Tikuvchilik texnologiyasi. T.. O'zbekiston. 1994.
3. Jo'rayev Z. B. va boshq. Materialshunoslik. T., 2001.
4. Xolmatov B. Naqshnoma (Naqsh kompozitsiyalarini tuzish bo'yicha o'quv qo'llanmasi). T., 1999
5. Azizova N. K. Zolotoye shite. T., 1968.
6. Aminov N. Biz — zardo'zlarmiz. T., O'zbekiston. 1981
7. www.ziyonet.uz
8. www.mehnatdarsi.zn.uz


Mundarija.

1.Kirish.....	3
2. Kashtachilik san'ati tarixi.....	4
3.Kashta tikish asboblari va moslamalri	6
4. Kashta tikishda ranglar tanlash.....	10
5. Kashtachilikda bezak buyumlari turlari.....	15
6. Kashtachilik texnologiyasi bo`limini o`qitishda qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari.....	20
7.Xulosa va tavsiyalar.....	21
8. Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.....	23
Ilovalar.....	25


Ilovalar



1-rasm. Kashta tikish chamberaklari





2-rasm. Bezakning simmetrik tuzilishi




3-rasm. Ranglar doirasi



4-rasm





5-rasm.

